

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ERKINOV ZOKIRJON ERKINBOY O'G'LI

**TURLI USULDA YIGIRILGAN IPLARDAN PISHITILGAN IP ISHLAB
CHIQRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xom ashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

**Texnika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора (DSc) технических наук**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Science
(DSc) on Technical Sciences**

Erkinov Zokirjon Erkinboy o‘g‘li Turli usulda yigirilgan iplardan pishirilgan ip ishlab chiqarishning nazariy va amaliy asoslari.....	3
Эркинов Зокиржон Эркинбой ўғли Научные и практические основы выработки крученой нити из разноструктурной одиночной пряжи.....	25
Erkinov Zokirjon Scientific and practical foundations of the production of twisted yarn from a single yarn of different methods.....	51
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	55

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI BIR MARTALIK
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN
DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ERKINOV ZOKIRJON ERKINBOY O'G'LI

**TURLI USULDA YIGIRILGAN IPLARDAN PISHITILGAN IP ISHLAB
CHIQRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.06.02–To'qimachilik materiallari texnologiyasi va
xom ashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.DSc/T328 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya institutidaning Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jumaniyazov Qadam

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Holiqov Qurbonali Madaminovich

texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Jaxongir Adxamovich

texnika fanlari doktori, professor

Suleymanov Rustam Shennikovich

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil “31” avgust soat 9⁰⁰ daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.(69) 225-10-07, faks; (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, 313-xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 549-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “19” avgust kuni tarqatildi.
(2023 yil “19” avgustdagi № 127 raqamli reestr bayonnomasi).



Signature of R.M. Muradov
Signature of X.T. Bobojanov
Signature of Q.M. Xoliqov

R.M. Muradov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T. Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Q.M. Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda paxta tolali mahsulotlar yuqori haridogirligini inobatga olib, barcha paxta tolasi etishtiruvchi davlatlar sanoatni avtomatlashtirish, robotlashtirish, yangi texnologiyalar hamda innovatsion echimlarni joriy etish orqali undan ishlab chiqariladigan mahsulot sifati va assortimentini oshirish, shuningdek, birinchi navbatda paxta tolasini chuqur qayta ishlash, kimyoviy tolalardan foydalangan holda aralashma matolarni iste'mol va gigienik xossalarini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda¹. Hozirgi kunda yengil sanoatda yakuniy ishlab chiqarish tarmoqlariga nisbatan (harajat jihatidan) o'zgarish yuz bermoqda. Buning sababi shundaki, yakuniy tovarlar narxi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar narxidan sezilarli darajada oshib ketadi, shuning uchun yakuniy mahsulotlar xalqaro savdoda ancha keng ishtirok etadi. Bu borada, jumladan yarim ishlab chiqaruvchi tarmoqlar orasida to'qimachilik sanoati eng muhim o'rinni egallaydi. Uzoq vaqt davomida paxta to'qimachilik sanoatining dunyodagi asosiy xomashyosi bo'lib qoldi, keyinchalik esa jun, zig'ir va sun'iy tolalarni qayta ishlash. Hozirgi vaqtda gazlamalarni jahon miqyosida ishlab chiqarishda kimyoviy tolalarning ulushi sezilarli darajada oshdi, paxta, jun va ayniqsa, zig'irning ulushi kamaydi. Tabiiy va kimyoviy tolalardan, trikotajdan (trikotaj matosidan) aralash matolar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda².

Jahonda bugungi kunda matolar ishlab chiqarishda kimyoviy tolalar ulushining sezilarli ortib borishi, ularni tabiiy tolalar bilan aralashma sifatida yangidan yangi assortimentdagi tayyor mahsulotlar turini ko'paytirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, kundalik ehtiyoj mahsulotlari turidan kelib chiqib to'liq tabiiy tolali mahsulotlarni kimyoviy tola aralashmali mahsulotlarga o'tkazish, buning uchun to'qimachilik sanoatiga kirib kelgan innovatsion va texnologik yangilanishlarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mavjud xomashyo bazasidan foydalangan holda estetik jihatdan yuqori, gigenik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan mahsulotlar ishlab chiqarish borasidagi vazifalar mutahassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg'or «klaster modeli»ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli hamda keng ko'lamlil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Sanoatning etakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash. To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor

¹ <https://www.evkova.org/tekstilnaya-promyshlennost-istoriya-kontseptsiya-i-sovremennost>

² <https://geographyofrussia.com/tekstilnaya-promyshlennost/>

mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Evropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish»³ bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, «Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni etakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2021 yil 21 yanvardagi PF-53-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 30 sentyabrdagi VMQ-556-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Pishitilgan ip ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, yangi pishitilgan ip ishlab chiqarish jihozlari yaratish bo'yicha ko'plab horij va sobiq ittifoqdagi ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda konstruktorlik byurolari ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Bu tadqiqotlar natijasida ko'plab pishitish mashinalari yaratilgan bo'lib, ularning aksariyati ishlab chiqarishga joriy etilgan. Bugungi kunda ushbu pishitish mashinalari takomillashtirilib, yangi modellari taklif etilmoqda. Jumladan: halqali pishitish mashinalarini ishlab chiqarishga joriy etgan firmalarga Saurer Allma (Germaniya), Lezzeni (Italiya), Wifama (Polsha) PL 22 modeli, ICBT (Evropa Ittifoqi) RCT 21 va RTM 01 modellarini; qo'shib pishitish mashinalarini yaratgan ICBT-Verdol (Fransiya), Murata (Yaponiya), Saurer Alma (Germaniya), Savio (Italiya) va Volkmann (Germaniya) bo'lsa, Savio (Italiya)TDS va Volkmann (Germaniya) VTS, ICBT-Verdol (Fransiya) DT 3000, Barmag (Germaniya) WT1E i DD13/23, Ratti (Italiya), Tallers ROF S.a.(Ispaniya) DTR/4 modeldagi qo'shburam berib pishitish mashinalari ishlab chiqarishga joriy etilgan. SHuningdek, Xitoy, Xindiston, Yaponiya davlatlarning to'qimachilik mashinasozligi zavodlarida tayyorlangan: AKBTEXTILEENGINEERS JIGAR 150 HS - SP/EC(Xindiston),

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

⁴www.saurer.com, www.wifama.com.pl, www.murata.com, www.akbtextileengineers.com, www.ctexic.com, www.rifa-texmachine.com, [www.https://saurer.com/en/systems/volkmann-systems/volkmann-systems-carpet-yarn-cabling-and-twisting](https://saurer.com/en/systems/volkmann-systems/volkmann-systems-carpet-yarn-cabling-and-twisting), www.savio.it

MURATA (Yaponiya), CTEXIC — China Textile Industrial Corporation for Foreign Economic and Technical Cooperation K3521, Zhejiang Rifa Textile Machinery Co., Ltd. RF321E, Zhejiang Kaicheng Textile Machinery Co.,Ltd. Cy128 (Xitoy) qo'shbura pishitish mashinalaridan ham to'qimachilik korxonalarida pishitilgan ip ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Bu mashinalar tuzilishi, ishlashi va xizmat ko'rsatish qulayligi jihatidan tobora raqobatbardoshligini oshirib bormoqda.

Yuqorida nomlari keltirilgan pishitish mashinalarini ishlab chiqargan korxonalar mashinani ishlatish bo'yicha texnik tavsiyalar bergan bo'lsalarda, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hossalari va assortiment imkoniyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar manbalarda juda kam keltirilgan hamda shunga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Yakka iplarni pishitish natijasida ularning mavjud xossalari saqlabgina qolmay, ularga qator yangi xossalarni ham bahsh etiladi. Jumladan, pishitilgan iplarning uzilishdagi pishiqligi 1,2-2,2 ga qadar, sifat ko'rsatgichlarini belgilovchi xossalari sezilarli darajada ortib, ip ravon bo'ladi, qo'p siklli mexanik kuchlardan cho'zuvchi, egib-buklovchi, ezuvchi, siquvchi va buram deformatsiyalariga chidamliligi ham bir necha barobar ortishi ilmiy tadqiqotlar natijalarida qayd etilgan.

Pishitilgan ip xossalari loyihalash, o'rganish va texnologik jarayonlarini tadqiq etish bo'yicha taniqli horijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan: A.G.Sevostyanov, J.Bruske, S.G.Zaretskas, V.E.Morton, X.Sommer, V.A.Usenko, G.N.Kukin, B.M.Chepman, B.M.Rybakova, N.Kargolm, F.T.Pirs, R.Meredith, Dj.S.Ouen, R.Auerbax, P.Nordon, V.Vaylers, V.A.Voroshilov, G.V.Sokolov va boshqalar.

Respublikamizda pishitilgan iplar ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini tadqiq etish, ularning xossa va xususiyatlarini o'rganish masalalariga bir qator olimlar ilmiy ishlarini bag'ishlaganlar. Bulardan: X.A.Alimova, R.Z.Burnashev, X.X.Ibragimov, X.Parpiiev, Q.Jumaniyazov, I.Azizov, J.Axmedov, V.Isaqlulov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari ushbu sohadagi masalarni hal etishda salmoqli natijalarga erishganlar.

Shu bilan birga, har bir turdagi pishitilgan iplarning shakllanish qonuniyati ayrim umumiy va xususiy hollardan iborat bo'ladi. Ushbu zarur holatlarni ta'minlash esa mashinalarning qismlarini konstruktiv jihatdan tuzilishini turlicha qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar xususiy hollarni bir-biriga hamda qismlarni rostdash yo'li bilan ularni «universal» darajaga yaqinlashtirilsa, mashinada (yoki qurilmada) ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan iplarning turi ko'paya boradi. Pishitilgan ip ishlab chiqarishga tadbiq etilgan texnika va texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularning texnologik parametrlarini optimallashtirish muammolari etarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ITD - 3 - 66 raqamli "Ko'p tarkibli pishitilgan iplar tayyorlash texnologiyasini yaratish" (2012-2014yy.) va 2014-2015 yillarga mo'ljallangan YOAZ – FQ – 0 - 24231 YOAZ – 007 raqamli «Yangi

assortimentdagi murakkab strukturali pishitilgan iplardan vafelli va momiq sochiq to‘qima matosini olish» mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli usulda yigirib olingan iplardan pishitilgan iplar ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq etish orqali mavjud pishitish mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisobiga eksportbop to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini kengayitirish.

Tadqiqotning vazifalari:

pishitilgan iplarni ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari xususiyatlarining tahlili;

pishitilgan iplarni ishlash texnika va texnologiyalari taraqqiyoti holatini o‘rganish;

pishitilgan iplarning geometrik va ekspluatatsion xususiyatlarini loyihalashning nazariy asoslarini tahlili;

mavjud pishitilgan iplar tayyorlash jihozlarida assortiment imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil etish;

qo‘shburam pishitish mashinalarida ishlab chiqarilgan iplarning fizik – mexanik xossalari va strukturasini o‘rganish;

turli usulda yigirilgan iplardan tayyorlangan pishitilgan iplarning fizik-mexanik xossalarini o‘rganish;

qo‘shburam pishitish mashinalarining asosiy texnologik hamda kinematik ko‘rsatkichlarini muqobillash.

bir bosqichda ko‘p qavatli pishitilgan ip ishlab chiqarish qurilmasida ishlab chiqariladigan iplar assortimentini kengaytirish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida - paxta tolali yakka iplar va ulardan yangi texnologiya asosida tayyorlangan pishitilgan iplar, pishitish mashinasi, qo‘shburam berish urchug‘i olingan.

Tadqiqotning predmetini pishitilgan ip ishlab chiqarishning xom ashyo bazasi va undan samarali foydalanish, pishitilgan ip tayyorlash texnika va texnologiyasi, pishitilgan iplar assortimenti, pishitilgan iplarning shakllanish qonuniyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va tajribaviy usullardan foydalanildi. Tadqiqotlar zamonaviy o‘lchov asboblari va tajribani matematik rejalashtirish usullarini qo‘llagan holda amalga oshirildi. Eksperimental namunalarning fizik-mexanik xossalari ishlab chiqarish korxonasi va NamMTI qoshidagi «Tikuv-trikotaj sinov laboratoriyasi» o‘quv - sinov laboratoriyasida aniqlandi. Tajribalar hajmi ilmiy-tadqiqot talablarida belgilangan miqdorda bajarilib, natijalar xatolik qiymati 5% dan oshmagan. Matematik modellarni tahlil qilishda matematik dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘shburam pishitish mashinasida pishitilgan iplar ishlab chiqarishda pishiqlikni ta‘minlash uchun pishitilgan ip tarkibidagi yakka iplarda qolgan qoldiq buramlar sonini aniqlangan;

qo'shburam pishitish mashinasida ip yo'naltirgich va urchuqning yuqori zonasidagi qismlarga ipning tegishini hisobga olgan holdagi umumiy ishqalanish momentini aniqlash formulasi ishlab chiqilgan;

turli chiziqiy zichlikdagi iplar uchun qo'shburam pishitish mashinasini pishitish diski tezligiga bog'liqlik holdagi ballon hosil qiluvchi taranglikni maqbul qiymatlari aniqlangan;

qo'shburam pishitish mashinasida ipni egri chizikli yuzada kuchlanishini analitik jamlash usulidan foydalanib, ballondagi hamda ballonning boshlang'ich nuqtasidagi ipning taranglik qiymatlari aniqlangan;

nasadka ichki konus yuza diametri, sharcha diametri, sharcha massasini maqbul qiymatlarini aniqlab, taranglikni rostlovchi va buramni bir tekis taqsimlovchi sharchali nasadkadan tashkil topgan pishitish qurilmasini yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli usulda yigirilgan iplardan pishitilgan ip ishlab chiqarishda ularning geometrik va ekspluatatsion xususiyatlarini loyihalashning nazariy asoslarini tahlil asosida kritik pishitish koeffitsientlaridan foylanish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

qo'shburam pishitish mashinasida taranglikni rostlagan holda buramlar sonini kamaytirish orqali ham kerakli xossa va xususiyatlarni ta'minlash imkoniyatlari aniqlangan;

qo'shburam pishitish mashinasida ishlatilish ko'lamiga ko'ra, ishlab chiqariladigan pishitilgan iplarning xossalarini ta'minlovchi taranglikning sonli qiymatlari nazariy ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan;

bir bosqichda ko'p qavatli pishitilgan iplar ishlab chiqarish mashinasida assortiment imkoniyatlarini kengaytirish orqali fason iplar ishlab chiqarish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi eng avvalo juda ko'p tajriba materiallarining statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini solishtirish, baholash kriteriyalariga ko'ra ularning mos kelishi, yangi texnologiya asosida olingan pishitilgan iplarni ishlab chiqarish qurilmasining amaliy va nazariy modellari holatlarining yaqinliklari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yakka iplarning xossa ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda pishitilgan ip hossalari ta'minlashning nazariy va amaliy tadqiqotlari orqali qo'shburam pishitish mashinasida turli yigirish usulida olingan iplarni pishitishda mashina texnologik parametrlarni rostlashning nazariy va amaliy asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqarish korxonalarida muayyan assortimentdagi pishitilgan iplar ishlab chiqarishda yakka iplarning hossa ko'rsatkichlarini oldindan loyihalash orqali mahsulot sifatini ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishi natijalaridan foydalanib, magistratura talabalari uchun «Pishitilgan ip ishlab chiqarishning nazariy asoslari» fanidan ma'ruzalar kursi tayyorlandi va tegishli mutahassislik fanlarida foydalanish bo'yicha tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pishitilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq etish va takomillashtirish orqali ip sifatini yaxshilash bo'yicha bajarilgan ilmiy natijalar asosida:

qo'shburam pishitish mashinasi ishini nazariy tadqiq etish orqali, mashinada 2 va 3 qavatlik pishitilgan iplarni bir bosqichda pishitib olish bo'yicha tajribalar natijasida, yakka iplarni tayyorlanish usuli, buramlar sonidan kelib chiqib, taranglikni to'g'ri rostlash orqali, pishitilgan ipga beriladigan buramlar sonini 10 %ga kamaytirish natijasida mashina unumdorligini oshirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalarini "Namangan To'qimachi Holding" korxonalar tarmog'idagi «Home textile NT» MCHJga tadqiq etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2023 yil 15 iyundagi № 03/25-1336 sonli ma'lumotnomasi). Qo'shburam pishitish mashinasida mahsulot hajmini oshishi natijasida sifatli mahsulot hajmi 64394 ming so'mga oshganligi, bu o'z navbatida bozor raqobatbardosh mahsulot bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Bir bosqichli murakkab strukturali pishitilgan iplar olish texnologiyasi asosida yangi qurilmaga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali model uchun patenti olingan («Kalava iplarni eshish uchun qurilma» № FAP 00565. 2010 y.), natijada resurstejamkor, keng assortimentdagi pishitilgan iplar ishlab chiqarish qurilmasi tayyorlanib, murakkab strukturali va shakldor iplar ishlab chiqarish imkoniyatlari tadqiq etildi. Ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasi asosida olingan pishitilgan iplarni ishlab chiqarish korxonalarida joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2023 yil 15 iyundagi № 03/25-1336 sonli ma'lumotnomasi). Joriy etish natijasida yangi pishitish qurilmasini ishlab chiqarishga joriy etish orqali 78636,72 ming so'm/mashina iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 12 ta halqaro va 9 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 51 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 25 ta maqolalar, jumladan 16 ta respublika va 9 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 1 ta foydali modelga patent va 2 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 182 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy

ahamiyati bayon etilgan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishni aprotatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Pishitilgan iplar ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi bo'yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan I - bobida pishitilgan iplar, ularning xossalari va qo'yiladigan talablar, pishitilgan iplarning xossalari, pishitilgan iplar, ulardan olinadigan mahsulotlar va ularga qo'yiladigan talablar, pishitilgan iplarni ishlash texnika va texnologiyalari xususiyatlarining tahlili, pishitilgan iplar ishlab chiqarishda texnologik, konstruktiv, tashkiliy va iqtisodiy muammolari, pishitilgan iplar ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari taraqqiyoti kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlar tahlil etilgan.

Prof. A.G. Sevostyanov tomonidan taklif etilgan pishitilgan iplarning grafik chizmasi, iplarni turli strukturada pishitishning ko'p qirrali imkoniyatlarini yaxshi ko'rsatib berishi, grafik usul bilan bir qatorda pishitilgan ip strukturasi analitik usulda belgilashni ham tavsiya etganligi aniqlangan. Ahamiyatli jihati, bu usul oddiy bo'lishiga qaramay xomashyodan boshlab birga pishitish jarayonlari o'timlari haqida keng ma'lumot beradi.

Tadqiqotlar tahlillari natijasiga ko'ra, turli assortimentdagi iplar har xil konstruksiyadagi mashinalarda ishlab chiqarilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi. Pishitilgan iplardan turli maqsadlar va sohalarda ishlatiladigan keng assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan tahlillar asosida pishitish mashinalari va pishitish mexanizmlarining tuzilishi bo'yicha mualliflar tomonidan tasnif taklif etilgan hamda paxta tolali to'qimachilik iplaridan pishitilgan iplar va ip buyumlari olish bo'yicha tasnif takomillashtirilgan.

Bugungi kunda tola turidan qat'iy nazar, aksariyat assortimentdagi pishitilgan iplar ishlab chiqarishda asosan qo'shburam berib pishitish mashinalari ko'proq foydalanilayotganligini va u eng samarador pishitish mashinasi sifatida foydalanilayotganligi tahlillar natijasida aniqlangan. SHunga qaramasdan, pishitilgan ip ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, yangi joriy etilgan texnologiyalarni assortiment imkoniyatlarini o'rganish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berish hamda yangi usullar ustida ish olib borish soha mutahassislari oldidagi dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Dissertatsiyaning **“Pishitilgan iplarni loyihalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan II - bobida pishitilgan iplarning xossa va hususiyatlarini o'rgangan klassik olimlar: S.G.S.Zaretskas, V.E.Morton, X.Sommer, prof. G.L.Slonimskiy, B.M.CHeppen, B.M.Рыbakova, E.A.Nemchenko, L.A.Luvishis, N.Kargolm, F.T.Pirs, R.Meredith, Dj.S.Ouen, Dj.B.Spikmen, P.Nordon va ip mexanikasini tadqiq etish bo'yicha olimlar A.P.Minakov, V.S.SHedrov, X.A.Raxmatulin, V.A.Svetlitskiy, N.I.Alekseev, O.A.Goroshko va boshqalarning ishlari chuqur tahlil etilgan. Pishitilgan iplarning strukturaviy tuzilishini tadqiq etilgan va yakka ipning pishitish koeffitsienti bilan pishitilgan ip pishikligi orasidagi bog'liqlikni tadqiqiy masalalar o'rganilgan.

Prof. K.I.Koritskiy va A.N.Solov'evlar tomonidan yakka ipning kritik pishitish koeffitsientini aniqlash uchun taklif qilgan formulalari bir-biriga mos tushmasligi aniqlanib, o'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida prof. K.I.Koritskiyning formulasi haqiqatga yaqinligi aniqlangan. Bu formulalar orasidagi farqni chuqurroq tahlil qilish maqsadida ularning matematik modellari olindi. Farg'ona vodiysida etishtiriladigan tolalarning fizik-mexanik xossalari «Sifat» markazlaridan olinib, formuladagi o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga qo'yilib, hisob ishlari olib borilgan. Natijada, kritik pishitish koeffitsienti bilan tolaning hususiyatlari orasidagi bog'liqlik o'rganilib, prof. K.I.Koritskiyning yakka ipni kritik pishitish koeffitsienti formulasini tadqiqotlar davomida qo'llash uchun qabul qilingan.

Pishitilgan iplarning pishiqligi va tuzilishiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etish bo'yicha F.A.Afonchikov, G.Dj.Vuds, G.Jegoff, A.N.Solov'ev, V.A.Voroshilov, K.I.Koritskiy, V.T.Kostitsin va boshqa ko'plab olimlar tomonidan pishitilgan ip pishiqligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha olib borilgan ishlar tahlil etilgan.

Pishitilgan ipni tashkil etuvchi yakka iplardagi qoldiq buramlarni tadqiq etgan olimlar V.A.Voroshilov, G.V.Sokolov, N.M.Lebedev, K.I.Koritskiy, YU.V.Pavlov pishitilgan ipda qatnashayotgan yakka iplarda qolgan qoldiq buramni aniqlashda formula taklif qilganlar. Ushbu formulalarni amaliy tajribalar orqali faqat N.M.Lebedevning pishitilgan ipda qatnashayotgan yakka iplarda qolgan qoldiq buramni aniqlash formulasi haqiqatga yaqinligi va pishitilgan ipdan ajratib olingan yakka iplarda qoldiq nisbiy uzish kuchi va uzilishdagi uzayishini tahlil etilganda, pishitishdan oldingi yakka ipdagiga nisbatan qoldiq uzilishdagi uzayish 0,6-0,8% ga kamayganligi aniqlangan.


Pishitilgan ip parametrlarini ip tuzilishining geometrik tasavvur asosida analitik tarzda aniqlash uslubi uning diametri, buramlar soni, muvozanatlanganligi va buram burchagini hisoblashning faqat yaqinroq natijalarni beradi. SHuningdek, ushbu ko'rsatkichlarga ipning chiziqli zichligi va buramlar sonidan tashqari tola xossalari, texnologik jarayonlar ketma-ketligi kabi nazariy hisoblarda inobatga olinmaydigan ko'rsatkichlar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

G.Dj.Vuds tomonidan iplarning murakkab strukturaviy tuzilishi sabablari ko'satib o'tilgan. Uning fikricha, ikki va undan ortiq yakka iplardan tayyorlangan pishitilgan iplar murakkab tuzilishga ega bo'ladi. Ushbu murakkablik quyidagilardan iborat:

- iplar qo'shib pishitilganda yakka iplardagi buramlar soni o'zgaradi;
- tolalardagi buramlar qiymati arziyasida bo'lsada o'zgaradi;
- pishitilgan ipning uzunligi va uni tashkil etuvchilarning o'q bo'yicha uzayishi bir vaqtda o'zgaradi;
- pishitilgan ipni tashkil etuvchilarning o'qi burama chiziq shaklini oladi va ixtiyoriy elementar tola murakkab egri muhitga aylanadi.

Bu o'zgarishlarning miqdori birinchi va ikkinchi buram yo'nalishiga, iplar diametriga, shuningdek, ularning qayishqoqlik xossalariga bog'liq. G.Dj.Vuds differensial geometriya usullaridan foydalanib, pishitilgan ip o'qi deformatsiyasida buram o'zgarishi ip o'qi buram moduli kattaligiga mos kelishi va yakka ipdagi buramlarga bog'liq bo'lmasligini aniqlagan.

Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, nazariy tadqiqotlarga amal qilgan holda, yakka va pishitilgan iplarda buramlar va yakka iplarning qo'shilishlar soni, buram yo'nalishi mutanosib tarzda tanlanib, pishitish jarayonida yakka iplarning chiziqli zichligi va qo'shilishlar sonidan kelib chiqib tarangliklari bir hilda bo'lishi ta'minlanganda pishitilgan ipda buramlar bir tekis taqsimlanishiga erishiladi. Buning natijasida iplarni pishitishda buramlar sonini kamaytirish mumkin bo'ladi.



1-rasm. Pishitilgan ip ko'ndalang kesim ko'rinishi

Yakka iplarning qo'shilishlar soni uchta bo'lgan pishitilgan iplarga yigirish va pishitish jarayonida buram yo'nalishi bir hilda (SS-struktura) (1-rasm a), yigirish va pishitish jarayonida buram yo'nalishi qarama-qarshi (ZS-struktura) (1-rasm b) bo'lganda, yuqorida aytib o'tilgan meyorlarni saqlagan holdagi ipning ko'ndalang kesimini ko'rishimiz mumkin. Pishitilgan ipga berilayotgan buram yo'nalishi yigirish jarayonida berilgan buramga qarama-qarshi, buramlar soni mutanosib va yakka iplar tarangligi bir hilda bo'lsa, iplarni bir-biriga teginish yuzasi ko'proq bo'ladi. Buning natijasida ip bir vaqtda turli deformatsiyalarga uchrasada, ularga qarshiligi ortadi.

Olib borilgan tadqiqotlar pishitilgan ipning tuzilishi ko'plab omillarga bog'liqligini va uni murakkab strukturaga ega bo'lishini ko'rsatgan.

Iplarda buramlar taqsimlanishini uning yo'g'onligi va diametriga bog'liqligini dastlab ispaniyalik olim A.Barella ilmiy ishlarida tadqiq etgan. Muallifning fikricha ipning ingichka joylarida buramlar soni uning yo'g'on joylariga nisbatan yig'ilib qolishi avvaldan ma'lum bo'lgan bo'lsada, ushbu muammo to'liq o'rganib chiqilmagan.

Muallif tomonidan tajribaviy tadqiqotlar asosan variatsiya koeffitsientlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida olib borilgan:

- ipning buramlar taqsimoti S_K va yo'g'onligi S_T bo'yicha (chiziqiy zichlik teksda) variatsiya koeffitsientlar o'rtasida;
- ipning diametri S_d va yo'g'onligi S_T bo'yicha variatsiya koeffitsientlari o'rtasida.

Nazariy tadqiqotlar natijasida

$$S_d = 0,5C_T \quad (1)$$

ga teng bo'lishi aniqlangan, hamda buram taqsimlanishi ip diametriga to'rtinchi darajali teskari proporsionalligi belgilangan.

Professor V.A.Voroshilov birinchilardan bo'lib ip uzunligi bo'ylab buramlar taqsimlanishini o'rganishda buram shakllanish zonasida ipning buram momenti doimiyligi gipotezasini qo'llagan. Ushbu gipotezani keyinchalik tadqiqotchi olim K.Sastmen qo'llagan va tajribalar orqali uni to'g'riligini isbotlagan. SHuni ham


ta'kidlash kerakki, boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar ham ushbu gipotezani tasdiqlagan.

Prof. V.A.Voroshilov ta'kidlashicha, ipning ko'ndalang kesim yuzasi – F , ipdagi tolalar soni – f ga proporsional bo'ladi, ya'ni:

$$FK = const, \quad (2)$$

Muallif ta'kidlashicha, ushbu tenglama tadqiqotchi Ternerning maxsus tadqiqotlariga mos keladi. Xuddi shuningdek, tadqiqotchi K.Sastmen ham aynan shu tenglama analogini tavsiya etgan.


Ushbu tadqiqotchilar qatorida G.Olerup va M.Ruiz-Kuevaslar ham ipda buramlar taqsimlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.



2 - rasm. Ip diametri - S_d ni buramlar soni - Kga bog'liqlik grafigi
Iplar quyidagi shartlarda pishitilgan: 1 va 2 – $l=const$ (10mm);
3 va 4 - $R=const$; 5 va 6 – nazariy qiymatlar sathi - $S_d=0,5 C_T$.

Mavjud ma'lumotlar (2-rasm) ko'rsatadiki, odatda ip diametri bo'yicha tajribaviy variatsiya koeffitsienti - S_d^e kattaligi sinovlarda nazariy ko'rsatkich $S_d=0,5C_T$ ga nisbatan sezilarli yuqori bo'ladi.

Ip tarangligi R , buramlar soni va ipning zichligi - δ ortishi bilan og'ishlar kamayadi (3-rasm).




3-rasm. Ip hajmi - δ ning pishitish koeffitsienti – α ga bog'liqlik grafigi
(Prof. K.I.Koritskiy tadqiqotlari natijasiga ko'ra).

Iplar uzunligi bo'ylab buramlar taqsimlanish notekisligi ip chiziqli zichligi bo'yicha notekisligi bilan uzviy bog'liq. Buramlar ipda nisbatan ingichka joylarda «to'planadi». Bu holatni ipdagi ingichka joylarni buram deformatsiyasiga qarshiligi yo'g'onroq joylarga nisbatan kamligi bilan izohlash mumkin. Boshqacha aytganda, buramlarning notekis taqsimlanishiga iplarni pishitishdagi mexanik xossalarning notekisligi sabab bo'ladi. Olib borilgan tahlillar natijasida tadqiqotchi tomonidan ilmiy muhimligi va amaliy ahamiyatiga qaramasdan bugungi kungacha iplarda

buramlar taqsimlanish notekisligini ip fizik-mexanik xossalari o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil etilmaganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Pishitilgan ip tayyorlash jihozlarning asosiy ishchi qismlarini nazariy tadqiqi”** deb nomlangan III - bobida qo'shburam pishitish mashinasining texnologik va konstruktiv imkoniyatlari tahlil etilgan. Qo'shburam



4 -rasm. Qo'shburam pishitish mashinasida buram shakllanishi

berib pishituvchi urchuq, disk va taranglikni rostlovchi qurilmalarning konstruktiviyasi o'rganilib, ularda nazariy tadqiqotlar olib borilgan.

Qo'shburam berib pishitish mashinasida iplar buram olishi jarayonida katta masofani bosib o'tadi. Natijada, pishitilayotgan ip nazoratsiz qolishi hisobiga ipga berilayotgan buram notekis tarqaladi. Buramdagi ushbu notekislik pishitilgan ipga qo'yilgan talabni umumiy holda qondirsada, mexanik xossalari yuqori bo'lgan iplar ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Qo'shburam berish urchug'ining tuzilishi uni buram berish yo'lini ikkiga bo'lish imkoniyatini beradi (4-rasm): ichki ABCDEK va tashqi KIJ. Qo'shburam berish urchug'ida buram shakllanish sharti ikkala qismida bir biridan keskin farq qiladi. Ichki ABCDEK qismida ip o'q bo'yicha oddiy to'g'ri chiziqda buram oladi. Tashqi KIJ qismida esa, ipga buram urchuq o'qiga nisbatan ballon hisobiga beriladi. Buning natijasida urchuq ichida buram

olish jarayonida ip, tashqi qismda buram olish jarayonigiga nisbatan sezilarli darajada kam taranglikka ega bo'ladi. Bunday sharoitda jarayon borishi mumkin emas. Buning natijasida texnologik jarayon buziladi va bu pishitilgan ipning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



5 - rasm. Qo'shburam pishitish urchug'i ichiga o'rnatilgan kapsulali ip taranglagich-1

Yuqorida ko'rib o'tilgan qo'shburam pishitish mashinalarida iplarga beriladigan buramlarni bir tekis taqsimlanishida taranglikni rostlash katta ahamiyatga egaligi sababli, firmalar tomonidan g'ovak urchuq ichida kapsulali taranglagichdan foydalanilgan (5-rasm).

Qo'shburam pishitish urchug'ida ip tarangligini nazariy tadqiqi natijasida urchuq ichki zonasida ip tarangligini to'g'ri rostlash uchun har bir elementdan ip o'tishidagi taranglik kattaligini o'zgarish chegarasi yoki kattaligini bilish lozimligi aniqlangan. Ipni egri chiziqli yuz bilan umumiy holdagi o'zaro ta'sirini ma'lum chiziqiy zichlikdagi

ip urchuqning radiusdagi egri yuzasidagi tezlik bilan sirpanishini ko'rib chiqilgan. Nazariy tadqiqotlar asosida ipni urchuq egri chiziqli yuzasidan o'tishida taranglikni kuchaytirish koeffitsienti hisoblandi:

$$K_k = e^{f\alpha} - \frac{mv^2}{P_T} (e^{f\alpha} - 1) \quad (1)$$

Yuqoridagilar asosida urchuq yuqori egri chiziqli yuzasida taranglik kuchi quyidagi ko‘rinishga keladi:


$$R_s = P_T K_k \quad (2)$$

Ushbu tenglama bo‘yicha olib borilgan hisob ishlari urchuq yuqori egri chiziqli yuzasida taranglik kuchi kichik qiymatga ega bo‘lganligi sababli, amaliy hisoblarda Eyler formulasidan foydalanishni lozim topildi:

$$K_k = e^{f\alpha} \quad (3)$$

bunda, K_k – ip tarangligini kuchaytirish koeffitsienti; f – yuza bo‘ylab sirpanish koeffitsienti; α – yuzada ipning egilish burchagi, rad.

Qo‘shburam pishitish mashinasida qo‘shib o‘ralgan iplar silindrsimon o‘ramadan echib olinadi. Harakatlanmaydigan silindrsimon o‘ramadan ipni echib olish davomida ip ma‘lum taranglik bilan tortilganda u o‘ramaga mahkamroq yopishadi va ishqalanish natijasida ipni echib olish o‘rniga chuvalanishi yuzaga keladi. Chuvalanib chiqishni bir maromda borishi uchun mashinasozlik kompaniyasi ilmiy xodimlari tomonidan o‘rama yuqori qismida urchuqqa yuk beruvchi shaybalar bilan ko‘tirilib ketishini ta‘minlagan holda ipni aylangan holda echib beruvchi moslama 1 o‘rnatilgan (6-rasm).



6 - rasm. Urchuq yuqorisidagi ip yechish moslamasi

Ipni o‘ramadan echilishida taranglikning nazariy tadqiqi davomida urchuq yuqorisidagi ip echish moslamasidagi yuklanish sxemasi va ipning chuvalish jarayoni kinematikasi tuzilib, ip chuvalantirgichning o‘rnatilgan harakatida, harakatlanish momenti, vtulkada ishqalanish kuchi momentining yig‘indisiga teng bo‘lishi lozimligi aniqlanib, buning uchun tegishli formula ishlab chiqilgan.

Ipning taranglik kuchi, ko‘zcha yuzasidan ipni sirpanishida ishqalanish kuchini inobatga olgan holda ip echish moslamasidan keyin quyidagicha bo‘ladi:

$$R = Ne^{\mu\gamma} \quad (4)$$


bunda, e – natural logarifm asosi; μ – ko‘zcha yuzasidan ipni sirpanishida ishqalanish koeffitsienti; γ – ko‘zcha yuzasida ipning egilish burchagi, rad.

SHu bilan birga ip echish moslamasiga ta‘sir etuvchi proeksiya kuchlarini hisoblash bo‘yicha tadqiqotchi Axrori tomonidan yuklanish sxemasi tuzilgan (7-rasm).

Ushbu sxema asosida ipni echib beruvchi moslamaga ta‘sir etuvchi kuchlar va ularning proeksiyalari nazariy tadqiq etilib, unga ta‘sir etuvchi kuchlarni hisobiga bosim kuchini quyidagicha hisoblab topilgan:

$$P = \frac{c}{\frac{D_i}{2R} \sqrt{\frac{R^2 - 0,25D_i^2}{(a+b-b_i)^2 + R^2 - 0,25D_i^2}}} \quad (5)$$


Ikki zonada buram beruvchi urchuqda ip taranglovchi kapsulali taranglagich, ipda ballon hisobiga yuzaga keladigan taranglikni rostlash uchun hizmat qiladi.



7- rasm. Urchuq yuqorisidagi ip echish moslamasidagi yuklanish sxemasi

Ushbu kapsulali taranglagichlar shunday turdagi mashinalarning aksariyatida qo'llanilib, ipning havol urchuq uchiga joylashgan keramik voronka va taranglagich sferik yuzasida qisilib o'tishi hisobiga qarshilik ko'rsatadi. Ip, kapsula ichiga joylashgan prujinaga bosim ta'sirida konussimon yuzaga qisilishi natijasida deformatsiyalanadi, ya'ni tarangligi ta'minlanadi (8-rasm).

Ip taranglagich zonasidagi taranglikni aniqlash bo'yicha nazariy tadqiqotlarda ipni taranglagich zonasidagi bosim sxemasi tuzilgan. Buning natijasida, ip qalinligining keskin o'zgarishi (tugunlar, nepslar va boshqalar) bosim kuchining keskin tebranishlari (silkinishlar, sakrashlar) ga olib kelishi, bu esa hali eshilmagan ipning uzilishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan.




8 - rasm. Ipni kapsulali taranglagich zonasidagi bosim sxemasi


Turli chiziqiy zichlikdagi iplar uchun qo'shburam pishitish mashinasi pishitish diski tezligiga bog'liqlik holdagi balon hosil qiluvchi taranglik qiymatini hisoblar natijasida aniqlangan.

Dissertatsiyaning “Qo‘shburam pishitish mashinasida turli assortimentdagi yakka iplardan pishitilgan ip olish bo‘yicha tajribalar” deb nomlangan IV - bobida uchinchi bobda olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida turli assortimentda pishitilgan iplar ishlab chiqarish uchun pishitish mashinasi parametrlarini rostdash ishlari olib borilib, turli yigirish usullaridagi: urchuqli, urchuqli kompakt va pnevmomexanik yakka iplardan pishitilgan iplar ishlab chiqarish bo‘yicha tajribalar olib borilgan.

Urchuqli usulda yakka iplardan pishitilgan ip ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba natijasida olingan pishitilgan iplarning nisbiy uzish kuchi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga 2 qavatli iplarda (9-rasm) urchuqning aylanishlar chastotasi 9000 min⁻¹ hamda 3 qavatli iplarda (10-rasm) urchuqning aylanishlar chastotasi 7000 min⁻¹ hamda barcha qo‘shilishlar sonida taranglikni rostdash ko‘rsatkichi 2-pozitsiyasida bo‘lganda erishilishi, uzilishdagi uzayish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar esa yaqin bo‘lsada farqlanishi aniqlangan.





9-rasm. 20x2 tekli iplarning nisbiy uzish kuchi va uzilishdagi uzayish gistogrammasi



10-rasm. 20x3 tekli iplarning nisbiy uzish kuchi va uzilishdagi uzayish gistogrammasi

Pishitilgan iplarga asosiy qo‘yilgan talablardan biri yakka iplarni qo‘shib pishitish natijasida uning xossa ko‘rsatkichlarini yaxshilashdir. Pishitilgan iplarning xossa ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi bilan birga ularning notekisliklari qanchalik kichik bo‘lsa, ulardan tayyorlanadigan mahsulot sifati shunchalik yaxshi bo‘ladi.





B)


a) – 450 bur/metr; b) – 550 bur/metr; v) – 650 bur/metr

